

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU**  
**ILMIY**  
**XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

— 2-2023 —

**НАУЧНЫЙ**  
**ВЕСТНИК.**  
**ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.Nasritdinova</b>	
Artpedagogikaning bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilari ijodkorlik qobiliyatlari rivojida imkoniyatlari .....	312
<b>G.Mo'minova</b>	
Universitet talabalarining so'z o'rganish strategiyalaridan foydalangan holda leksik kompetensiyasini rivojlantirish .....	390
<b>N.Mamatqulova</b>	
Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari .....	321
<b>U.O'rishov</b>	
Estrada jaz musiqasi evolyutsiyasi va uning nazariy-metodologik asoslari .....	325
<b>S.Uraimov</b>	
Maktabda gipertermiya sharoiti orqali jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini monitoring qilish .....	331
<b>I.I.Toshpulatov</b>	
Inson kapitali nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi .....	334
<b>F.U.Mirjavharova</b>	
Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	337
<b>M.Y.Isaqov, D.R.Tojiboyev</b>	
O'tloqi-voha tuproqlari tarkibidagi mikroelementlar tahlili va biologik singdirish koeffitsiyenti. ....	341
<b>I.I.Muhitdinov</b>	
Jinoyat geografiyasi va uning mohiyati, asosiy yo'nalishlari .....	346
<b>T.X.Tashmetov</b>	
Ijtimoiy tarmoqlardagi yot va zararli g'oyalarning o'ziga xos xususiyatlari .....	350
<b>D.B.Makhametova</b>	
Ta'limdagi muqarrar yangi media .....	355
<b>A.T.Akbarov</b>	
Oilada kattalar sportini tashkillash .....	359

---

**FANIMIZ FIDOYILARI**

<b>O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik Sayyora Sharafovna Rashidovaning 80 yilligiga .....</b>	<b>364</b>
----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------

**JAMIYATDA XOTIN QIZLARNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING IJTIMOY-SIYOSIY MOHIYATI****СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ ПОДДЕРЖКИ ЖЕНЩИН В ОБЩЕСТВЕ****SOCIO-POLITICAL ESSENCE OF SUPPORTING WOMEN IN SOCIETY****Mirjavharova Feruza Usmonjonovna<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Mirjavharova Feruza Usmonjonovna**

– Fargʻona viloyat yuridik texnikumi oʻqituvchisi 3 darajali yurist.

**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarni amalga oshirish jarayonida xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda oʻz faolligini oshirishning nazariy, amaliy ahamiyati ochib berilgan. Ushbu jarayonda taʼlim-tarbiya va maʼnaviy targʻibot natijasida yuksaltirish zarurligi asoslangan. Xotin-qizlar tafakkurida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mazmunini, maqsadlarini va amalga oshirish mexanizmlarini anglashda, gender siyosatining oʻrniga, ularning islohotlardagi faolligini oshirish ijtimoiy-falsafiy jihatdan ochib berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье раскрывается теоретическое и практическое значение повышения активности женщин в общественно-политических процессах при проведении реформ в нашей стране. В этом процессе заложена потребность в продвижении по службе в результате воспитания и морального поощрения. В мышлении женщин и девушек, в понимании основного содержания, целей и механизмов реализации реформ, реализуемых в нашей стране, вместо гендерной политики раскрывается повышение их активности в реформах с социально-философской точки зрения.*

**Annotation**

*This article reveals the theoretical and practical significance of increasing women's activity in socio-political processes during the implementation of reforms in our country. In this process, the need for promotion as a result of education and moral promotion is based. In the thinking of women and girls, in understanding the basic content, goals and implementation mechanisms of the reforms implemented in our country, instead of gender politics, increasing their activity in the reforms has been revealed from a socio-philosophical point of view.*

**Kalit soʻzlar:** *Xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, jamiyat, taʼlim-tarbiya, yangi rivojlanish bosqichi, fuqarolik jamiyati, tadbirkorlik, gender siyosati.*

**Ключевые слова:** *Женщины, девушки, общественно-политическая активность, общество, образование, новый этап развития, гражданское общество, предпринимательство, гендерная политика.*

**Key words:** *Women, girls, socio-political activity, society, education, new stage of development, civil society, entrepreneurship, gender policy.*

**KIRISH**

Oʻzbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida xotin-qizlarning ijtimoiy iqtisodiy islohotlardagi, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirishdagi, fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini yuksaltirishdagi oʻrniga muhim ahamiyat berilmoqda. Xotin-qizlarning jamiyat ijtimoiy-siyosiy tizimida umimiy soni oshib bormoqda.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida "...agar bundan 6 yil avval oliygohlarda 110 ming nafar xotin-qiz tahsil olgan boʻlsa, hozirgi kunda bu raqam qariyb 5 barobar koʻpayib, 500 ming nafarni tashkil etmoqda. Bu borada qizlarimizning ulushi 50 foizga yetgani tariximizda misli koʻrilmagan natijadir.

Yangi tartibga muvofiq, magistraturada oʻqiyotgan 10 mingdan ortiq talaba-qizlar uchun 68 milliard soʻmdan ziyod kontrakt pullari davlat tomonidan toʻlab berildi. 65 mingdan koʻproq talaba xotin-qizlarga 727 milliard soʻmga yaqin foizsiz taʼlim krediti ajratildi.

Ehtiyojmand oilalarda yashayotgan qariyb 2 ming nafar, shuningdek, mutaxassisligi boʻyicha besh yillik mehnat stajiga ega boʻlgan 500 nafardan ortiq xotin-qizlarimiz oliygohlarga alohida kvota asosida oʻqishga qabul qilindi"[1.]. Har qanday jamiyatning madaniy darajasi ayolga boʻlgan munosabati bilan belgilanadi. Mamlakatimizda faol gender siyosati doirasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy mavqeini mustahkamlash boʻyicha jadal ish olib borilmoqda. Oʻzbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasi 75 yubiley sessiyasida qayd etganidek, "Biz uchun gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylandi. Xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi oʻrni tobora

kuchaymoqda. Yangi Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobarga ko'paydi" [2.]. Bu esa jamiyatda xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotganidan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[3.]gi qarori xotin qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Xotin-qizlarning yoshlar o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirishda muhim o'rin egallaydi. Xotin-qizlar oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtiroki bilan muhim ahamiyatga ega bo'lgan amaliy ishlarni bajarmoqda. Mamlakatimizda, globallashtirish, axborot xurujlari kuchayib borayotgan davrda ijtimoiy hayotda namoyon bo'layotgan, milliy mentalitetimizga zid bo'lgan salbiy holatlarni oldini olishdagi va "Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishdagi faoliyati, xotin-qizlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini amalga oshirishdagi tarbiyaviy ishlarning ta'sirchan, kreativ va innovatsion uslublarini ishlab chiqish jarayonida va uni tobora yuksaltirishda asosiy o'rinni egallamoqda.

Jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasidagi islohotlar o'z natijasini bermoqda. Jumladan, "Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi va boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, ularning siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o'rni yuksaldi. O'zbek ayoli ismi-sharifi yoniga "O'zbekiston Qahramoni", "Deputat", "Senator", "Vazir", "Vazir o'rinbosari", "Akademik", "Olima", "Tadbirkor", "Direktor" atamaları qo'shib aytilishi buning yaqqol misolidir. Zero, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining qariyb 50 foizini, ya'ni 29 foizini 14 yoshgacha, 28 foizini 15-30 yoshlilar, 21 foizini 31-45 yoshlilar, 15 foizini 46-60 yoshlilar, 7 foizini 60 yoshdan katta xotin-qizlar tashkil etadi. Ular ijtimoiy-ma'naviy, siyosiy-iqtisodiy hayotning barcha sohalarda samarali va faol mehnat qilib kelishmoqda. Asosiy qonunimiz - Konstitutsiyada ham xotin-qizlarning barcha sohalarda teng huquqli ekanligi e'tirof etilgan. Hukumat tomonidan chiqarilayotgan qaror va farmoyishlarda ayollar, oilalar, farzandlar manfaatini hamisha ustuvor bo'lib kelmoqda"[4.5.]. Shu bilan birgalikda xotin-qizlar jamiyatning faol a'zosi sifatida, mamlakatimizda hukmron bo'lgan tinchlik va osoyishtalikka, uning barqaror taraqqiyotiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borishmoqda. Jamiyatda muhim vazifani amaliyotdagi ijrosi, ya'ni aholining ijtimoiy-ma'naviy hayotida bunyodkorlik g'oyalarini kuchaytirish, diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini mustahkamlashda ham xotin-qizlar muhim vazifalarni bajarmoqda. Demokratik islohotlar chuqurlashayotgan sharoitda, yoshlar orasida olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish, aholining intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirishga, mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda xotin-qizlar yetakchilik qilmoqda. Xususan, "...butun yer yuzi aholisining yuzlab yillardan buyon o'rganilayotgan va o'z yechimini topa olmayotgan o'tkir muammolaridan biri bo'lib kelgan va hozir ham shundayligicha turgan xotin-qizlarni ijtimoiy muhofaza etish, ularning haq-huquqlarini belgilash, erkaklar bilan teng huquqliligini ta'minlash kabi muammolarni xususiy mulkchilikka barham berish, erkak va ayol mehnati va "huquq"larini tenglashtiruvchi umumiy mulkchilikka o'tish bilan hal qildilar. Mulkning umumiyligi esa, o'z navbatida mehnatning umumiylikini taqozo etgan. Ya'ni unda ayol va erkak mehnati orasida farq bo'lmaydi, buning uchun ularning ijtimoiy ishlab chiqarishdagi huquq va imkoniyatlari ham teng bo'lishi lozim. Bunda ayollarning tabiat tomonidan berilgan o'z huquqlari, ya'ni oila va bola tarbiyasi masalasi ikkinchi o'ringa, keyinga surilib qo'yilishi tabiiy, albatta"[5.37.]. Xotin-qizlarning pedagogik, ilmiy, tashkilotchilik, tarbiya ishini uyushtirish mahoratidan yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga yo'naltirilgan innovatsion metodlarni yaratish, ilmiy-amaliy dasturlarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini takomillashtirishda foydalanish ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini ta'minlashda muhim omillardan hisoblanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fuqarolik jamiyati riojlanishi sharoitida ayollar bola tarbiyasida milliy tarbiya metodlari va zamonaviy pedagogikaning ilg'or yutuqlaridan samarali, ilmiy asosda foydalanishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birgalikda fuqarolik jamiyati institutlari orqali yoshlar orasida ma'naviy tarbiyani shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari, mahalla, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy

tuzilmalar o'rtasida samarali, ijodiy hamkorlikni kuchaytirish mexanizmlarini takomillashtirishda ham ayollarning bilimi, tajribasiga tayanish kutilgan natijani beradi. Hozirgi davrda xotin-qizlar bolalar bog'chalari, maktablar, akademik litsey va texnikumlari, tibbiyot muasasalaridagi asosiy vazifalarni bajaradi va xodimlar orasida ko'pchilikni tashkil qiladi. Yangi rivojlanish bosqichida mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda xotin-qizlarning faolligi kuzatilmoqda. Fuqarolik jamiyati rivojlanishi sharoitida xotin-qizlarni ijtimoiy himolashga, shaxsiy qobiliyatini oila, jamiyat va kasb faoliyatida to'liq ro'yobga chiqarishida ko'maklashishga e'tibor berilmoqda. Buning samarasida iqtisodiy faol aholi tarkibida ayollar ulushi 45,7 foizni tashkil etmoqda. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish sohasida ularning ulushi 76,6 foizni, ta'lim sohasida 75,6 foizni tashkil etadi, ya'ni 10 nafar xodimning 7 nafari xotin-qizlar hisoblanadi[6.]. Yangi taraqqiyot bosqichida jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitini ilmiy asoslash va manzilli sog'lomlashtirish metodikasiga doir loyihalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratildi. Shu munosabat bilan tumanlar va mahallardagi ijtimoiy-ma'naviy muhit holatini xonadonma-xonadon yurib aniqlash, tizimli monitoring va tahlil qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish imkoniyatlari shakllantirildi.

Fuqarolik jamiyati rivojlanishida, ushbu jarayondagi muhim vazifa, inson omilini ta'minlashda oila instituti muhim o'rin egallaydi. Shuning uchun ham oila institutini mustahkamligini ta'minlash zaruriyati mavjuddir. Oiladagi muhit bolalar tarbiyasidagi asosiy omil hisoblanib, kelajakda ularning munosib shaxs sifatida shakllanishida, mamlakatda olib borilayotgan yaratuvchilik faoliyatining faol ishtirokchisiga aylanishini ta'minlaydi. Shuningdek oiladagi samimiy, o'zaro hurmat, ota onaning bolalar kelajagi uchun qayg'urishi ularning chinakkam vatanparvar sifatida shakllanishiga yordam beradi. Oiladagi bolalarga bo'lgan mehr muhabbat, ularning orzularini ro'yobga chiqarishga, ota onalarning bevosita ijtimoiy yordami, ularda mavjud bo'lgan ijodiy qobiliyatlarning yoshlik davrida aniqlashga yordam beradi. Ta'kidlash lozimki, Samarqand, Xorazm, Farg'ona va Qoraqalpog'istonda Toshkent Axborot te'nologiyalari universitetining filiallari bazasida 150 nafar erkak va ayollar o'qitildi. O'quv kurslari natijasiga ko'ra, egallangan ko'nikmalar tinglovchilarni ishga joylashishda yordam berdi. Respublika bo'yicha 74ta tuman, shaharlarda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni maqsad qiluvchi "Bo'lg'usi kelin-kuyovlar innovatsion maktablari" faoliyati yo'lga qo'yilgan[7.]. Xotin- qizlarning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini munosib egallashida avvalo ularning bandligini ta'minlash muhim ahamiyat ega. "Bu borada joriy yilda ko'rilgan amaliy choralarga qaramasdan, haligacha og'ir turmush sharoitida yashab, ish bilan ta'minlanmagan 13 mingdan ziyod xotin-qizlar borligi achinarlidir"[8.2]. Ayniqsa ularni tadbirkorlikka jalb etish, ijtimoiy hayotda muhim o'rin egallaydigan bandlikni ta'minlash, ichki va tashqi bozorga mamlakatimiz brendi bilan tovarlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham fuqarolik jamiyati rivojlanishi davrida Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, Xotin-qizlar qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, mahalliy hokimiyat organlari bilan hamkorlikda xotin-qizlarni ishga joylashtirish va tadbirkorlikka jalb etish bo'yicha bir qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

### XULOSA

Yangi rivojlanish bosqichida mamlakatimizda ayollarning innovatsion ijtimoiy taraqqiyot jarayonidagi ishtirokini ta'minlashga muhim vazifa sifatida qaraldi. Xotin-qizlar demokratik islohotlarning chuqurlashuvini ta'minlaydigan asosiy ijtimoiy kuch sifatida, fuqarolik jamiyati rivojiga munosib hissa qo'shmoqda. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy, davlat boshqaruvi sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirish uchun muntazam tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Birinchidan, jamiyatda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy demokratik islohotlarning yanada chuqurlashuvi, uning jamiyatning barcha sohalarini qamrab olishi jarayoni, ayollarning ijtimoiy faolligini yanada oshirish, ushbu jarayonga aloqador davlat, nodavlat notijorat tashkilotlar ishini yangi innovatsion ijtimoiy taraqqiyot talablari asosida shakllantirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Ikkinchidan, jamiyatda xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy ayollarning ijtimoiy faolligini ta'minlash jarayoni bevosita ularning barcha imkoniyatlarni, ayollarning bilimi, salohiyati, tashkilotchiligini e'tiborga olish zarur.

Uchinchidan, jamiyatda xotin qizlarni qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-siyosiy jihatdan ta'lim va tarbiya jarayonini yanada takomillashtirish, yoshlar intellektual, axloqiy madaniyatini yuksaltirishga doimiy e'tibor berish vazifasini ilgari surilmoqda. Shu munosabat bilan ayollarning ilmiy, pedagogik faoliyatini, ayniqsa o'smirlar, talabalar bilan ishlash jarayonida ularning intellektual imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yangi rivojlanish bosqichi talablariga mos ravishda tashkil etish lozim.

To'rtinchidan, ta'lim-tarbiya sohasidagi reformatsion jarayon ayollarga kasbiy malakasini oshirishni jahon standartlariga mos ravishda tashkil etishni taqozo qilmoqda. Shuning uchun yoshlar tarbiyasiga aloqador bo'lgan ayollarning malakasini rivojlangan malakatlar yetakchi ta'lim muasasalarida o'tkazish, malaka oshirish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, iqtisodiy omillardan to'liq foydalanish mexanizmini yanada takomillashtirish lozim.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamlakatimiz xotin-qizlari uchun munosib sharoit yaratib berish – doimo e'tiborimiz markazida. <https://president.uz/oz/lists/view/6013>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/3851>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. Narbayeva T. "Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili" mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to'plami. 26 fevral 2019 yil. Toshkent.
5. Jo'rayeva N. O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat (XX asrning 20—80 yillari misolida): o'quv qo'llanma - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2013.
6. Gender tenglik masalasi – Senat faoliyatining muhim yo'nalishi Qo'mita va komissiyalar majlislari.
7. O'zbekistondagi oilaviy ajrimlarga nima sabab bo'layotgani ma'lum qilindi. 16.05.2019. [www.kun.uz](http://www.kun.uz).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 28.12.2018.